

FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik




2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Farg‘ona viloyatida kichik tadbirkorlik

2017-2022- yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda




Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **46,4** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **6,0** mingtaga ko‘paygan yoki **14,9** %ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **11,7** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2022- yilning yanvar - dekabrda **8,8** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **2,5** %ga kam demakdir.

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **46 350** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **8 828** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Farg'ona shahrida **7 777** tani yoki jamiga nisbatan **16,8 %** ni tashkil etdi.

1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Farg‘ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



2022- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **15,4** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2021 yilga nisbatan **3,9** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Farg‘ona shahrida **25,4** birlik, Qo‘qon shahrida **21,0** birlik, Marg‘ilon shahrida **17,8** birlik, Quvasoy shahrida **16,6** birlik, So‘x tumanida **13,6** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*)*

Farg‘ona sh	25,4
Qo‘qon sh	21,0
Marg‘ilon sh	17,8
Quvasoy sh	16,6
So‘x t	13,6
Dang‘ara t	12,8
Oltiariq t	10,3
Toshloq t	10,3
Uchko‘prik t	9,7
Furqat t	9,5
Buvayda t	8,9
O‘zbekiston t	8,8
Farg‘ona t	8,0
Yozyovon t	8,0
Bag‘dod t	7,6
Quva t	7,6
Rishton t	7,5
Qo‘shtepa t	7,2
Beshariq t	6,5

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Farg‘ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori
ko‘rsatkich

Farg‘ona shahar
25,4 birlik.

O‘rtacha
ko‘rsatkich

Furqat tumani
9,5 birlik.

Eng past
ko‘rsatkich

Beshariq tumani
6,5 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko‘rsatkich Farg‘ona shahrida **25,4** birlik, Qo‘qon shahrida **21,0** birlik, Marg‘ilon shahrida **17,8** birlik, Quvasoy shahrida **16,6** birlik, So‘x tumanida **13,6** birlik, Dang‘ara shahrida **12,8** birlik, Oltiariq tumanida **10,3** birlik, Toshloq tumanida **10,3** birlik, Uchko‘prik tumanida **9,7** birlik kuzatildi.

2022- yilda har 1000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Farg‘ona
shahar
25,4

Qo‘qon
shahar
21,0

Marg‘ilon
shahar
17,8

Quvasoy
shahar
16,6

So‘x
tumani
13,6

Dang‘ara
tumani
12,8

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*

2022- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da

2021- y.		2022- y.
475	Oltiariq tumani	428
305	Qo'shtepa tumani	334
439	Bag'dod tumani	422
489	Buvayda tumani	465
390	Beshariq tumani	428
481	Quva tumani	368
419	Uchko'prik tumani	352
397	Rishton tumani	382
201	So'x tumani	214
475	Toshloq tumani	505
456	O'zbekiston tumani	444
393	Farg'ona tumani	362
421	Dang'ara tumani	455
270	Furqat tumani	257

Marg'ilon shahar	7,0
Quvasoy shahar	3,8
Qo'qon shahar	9,9
Farg'ona shahar	15,6
Yozyovon tumani	2,4
Furqat tumani	2,9
Dang'ara tumani	5,2
Farg'ona tumani	4,1
O'zbekiston tumani	5,0
Toshloq tumani	5,7
So'x tumani	2,4
Rishton tumani	4,3
Uchko'prik tumani	4,0
Quva tumani	4,2
Beshariq tumani	4,8
Buvayda tumani	5,3
Bag'dod tumani	4,8
Qo'shtepa tumani	3,8
Oltiariq tumani	4,8


2022- yilda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Farg'ona shahri – **15,6 %**, Qo'qon shahar – **9,9 %**, Marg'ilon shahar – **7,0 %**, Toshloq tumani – **5,7 %**, Buvayda tumani – **5,3 %**, Dang'ara tumani – **5,2 %**, O'zbekiston tumani – **5,0 %**, hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2021-2022- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




— 2021- y. ■ 2022- y.

2022-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **3 839** ta, sanoatda **1 965** ta hamda qurilishda **541** ta yangidan tashkil etilgan.


Farg'ona viloyatining tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona **1 373** ta, Qo'qon **876** ta hamda Marg'ilon shaharlarida **617** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018-2022 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *ming birlik*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2018-2022 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *ming birlik*



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tibori natijasida 2018-2022- yillar davomida jami **33 024** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida -**13 054** (yoki **39,5 %**) ta, sanoat sohasida - **8 256** ta (yoki **25,0 %**), xizmatlar sohasida - **7 486** ta (yoki **22,7 %**), qurilish sohasida - **2 308** ta (yoki **7,0 %**) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **1 920** ta (yoki **5,8 %**) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so‘ngi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoqdan ulushi, % da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi		
Aralash qishloq xo‘jaligi	247	17,8
Parrandachilik	140	10,1
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	125	9,0
Ko‘chatxona mahsulotlari ishlab chiqarish	107	7,7
Dehqonchilik sohasida boshqa xizmatlar ko‘rsatish	79	5,7
Sanoat		
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	554	9,5
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoe ishlab chiqarish	477	8,2
Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish	425	7,3
Beton, qurilish gipsi va tsementdan boshqa buyumlar ishlab chiqarish	292	5,0
Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish	236	4,0
Qurilish		
Turar-joy binolarini qurish	496	31,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	334	21,3
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	262	16,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj ishlari	123	7,8
Elektrotexnik va montaj ishlari	87	5,5
Savdo		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	3593	31,6
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	2597	22,9
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	731	6,4
Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	700	6,2
Avtomobillarni yuvish, sayqallash va shu kabi faoliyat	378	3,3
Xizmatlar sohasi		
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	1472	26,7
Avtomobil transportida yuk tashish	383	7,0
Simsiz aloqa xizmatlari ko‘rsatish	363	6,6
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar	247	4,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	232	4,2

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So'ngi 5 yilda eng ko'p savdo sohasining ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **12 341 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarining **43,9 %**ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikatay mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi, % da



2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.


2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da



2022-yilda YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **68,9 %**ni tashkil qilib, 2021-yilga nisbatan **0,9** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.

2022- yilda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **97,5 %**ni, yo'lovchi tashishda **96,4 %**ni, qishloq xo'jaligida **95,6 %**ni, yuk aylanmasi **94,3 %** savdoda **89,4 %**ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sohalar bo'yicha YAHMdagi ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **13 398,3** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Uchko'prik tumani (**2 170,0** mlrd. so'm), Qo'qon shahar (**1 769,8** mlrd. so'm), Farg'ona shahar (**1 544,0** mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (**1 504,7** mlrd. so'm) va Beshariq tumani (**830,5** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. So'x tumani (**111**, mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2022- yilda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **44,1 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Beshariq tumani (**100,0 %**), So'x tumani (**100,0 %**), Yozyovon tumani (**100,0 %**), Marg'ilon shahar (**96,8 %**), Furqat tumani (**96,4 %**), Uchko'prik tumani (**85,1 %**), Buvayda tumani (**78,0 %**), Bag'dod tumani (**76,9 %**), Dang'ara tumani (**69,3 %**) va O'zbekiston (**24,6 %**) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2022- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi



2018-2022 -yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **6 906,8** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **80,7 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **104,4 %**ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (**1 783,6** mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (**521,8** mlrd. so'm), Qo'qon shahri (**503,4** mlrd. so'm), Qo'shtepa tumani (**411,4** mlrd. so'm), Bag'dod tumani (**411,1** mlrd. so'm), Toshloq tumani (**352,8** mlrd. so'm) hamda Oltiariq (**348,3** mlrd.so'm) tumanilarida qayd etildi.

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2022 -yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **9 731,7** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **63,2** %ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **117,2** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Qo'sh tepa tumani (**1 126,7** mlrd. so'm), Farg'ona shahar (**1 009,7** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**995,0** mlrd. so'm), Qo'qon shahar (**839,5** mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (**827,4** mlrd. so'm), Toshloq tumani (**620,2** mlrd. so'm) hamda Quvasoy (**530,0** mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

2018-2022-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



■ hajmi ■ foizi

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


2018-2022-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **31 921,5** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **95,6** %ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **117,8** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Oltiariq tumani (2 **667,9** mlrd. so'm), Qo'shtepa tumani (2 **511,1** mlrd. so'm), Rishton tumani (2 **433,7** mlrd. so'm), Bag'dod tumani (2 **368,7** mlrd. so'm), Beshariq tumani (2 **221,3** mlrd. so'm) hamda Quva (2 **174,2** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2022 -yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **23 254,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **89,4 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **107,2 %**ni tashkil qildi.

2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm

Marg'ilon sh	3 498,9
Qo'qon sh	4262,8
Farg'ona sh	3 736,0
Uchko'prik t	1 322,1
Quva t	1 056,0
Buvayda t	844,2
Qo'shtepa t	818,9
Farg'ona t	815,6
Bag'dod t	731,7
Beshariq t	668,7
Oltiariq t	656,5
Rishton t	649,6
Toshloq t	603,1
Dang	575,9

2018-2022 -yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Marg'ilon shahri (**4 398,9** mlrd. so'm), Qo'qon shahri (**4 262,8** mlrd. so'm), Farg'ona shahri (**3 736,0** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**1 322,1** mlrd. so'm), Quva tumani (**1 056,0** mlrd. so'm) va Buvayda (**844,2** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2022- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **14 150,6** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **63,2** %ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **107,2** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Farg'ona shahri (**3 414,4** mlrd. so'm), Qo'qon shahri (**2 028,3** mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (**778,8** mlrd. so'm), Buvayda tumani (**664,3** mlrd. so'm), Farg'ona tumani (**610,7** mlrd. so'm), Quva tumani (**602,8** mlrd. so'm) va Toshloq (**549,1** mlrd. so'm) tumanilari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mlrd. AQSH dol.




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mlrd. AQSH dol.



Ulushi, %da




2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **426,5** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **51,6** %ini tashkil etdi.


2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi



2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Beshariq tumanida – **100,0** %, So'x tumanida – **100,0** %, Yozyovon tumanida – **100,0** %, Uchko'prik tumanida – **99,1** %, Oltiariq tumanida – **96,4** %, Marg'ilon shaharda – **95,7** %, Bag'dod tumanida **95,5** % va Buvayda tumanida – **71,9** %, eng past ko'rsatkich Qo'shtepa tumanida – **11,1** %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2022-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **902,9** million AQSH dollarini yoki jami importning **73,2** % ini tashkil etdi.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi So'x tumanida – **100,0** %, Furqat tumanida – **100,0** %, Dang'ara tumanida – **99,9** %, Buvayda tumanida – **97,6** %, O'zbekiston tumanida – **97,2** %, Beshariq tumanida – **97,1** %ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2022- yilda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,9 %** ni tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **98,4 %** ni tashkil qildi.



Yuk
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,3 %**ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **106,2 %**ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2022- yilda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,4 %**ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,9 %**ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,5 %**ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **99,9 %**ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil IV- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2022- yil IV- chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 546** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **557 (36,0 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **887 (57,4 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **102 (6,6%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **38,9 % (601 ta)**, xizmatlar sohasida – **28,0 % (433 ta)**, sanoatda – **22,0 % (340 ta)**, qurilishda – **8,7 % (134 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2,4 % (38 ta)**ni tashkil etdi.

2022- yil III- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2022- yil IV- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona shahri (288 ta), Qo'qon shahri (168 ta), Marg'ilon shahri (141 ta), Oltiariq tumani (91 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning IV- choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **39,0** %ni, xizmatlar sohasida – **29,4** % ni, sanoatda – **19,4** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **39,6** % ni, xizmatlar sohasida – **27,7** % ni, sanoatda – **23,0** % ni, qurilishda – **7,2** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **32,4** %ni, sanoatda – **27,5** %ni, xizmatlar sohasida – **22,5** %ni tashkil etdi.

2022- yilning IV-choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



2022- yilning IV- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **39,2 %** ni, xizmatlar sohasida – **28,3 %** ni, sanoatda – **20,6 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **39,4 %** ni, xizmatlar sohasida – **27,8 %** ni, sanoatda – **22,5 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **34,5 %** ni, sanoatda – **27,6 %** ni, xizmatlar sohasida – **25,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	46,8	44,9	8,3
Band bo'lganlar soni	25,5	68,8	5,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	41,9	53,0	5,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	34,1	60,3	5,6
Raqobat muhiti	47,5	48,4	4,1

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	42,8	52,5	4,7
Band bo'lganlar soni	25,6	70,3	4,1
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	35,4	60,2	4,3
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	33,5	62,2	4,3
Raqobat muhiti	43,3	53,1	3,6


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning IV- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli